

**BUXORO AMIRLIGIDA XATTOTLIK SAN'ATI VA XATTOTLIK MAK TABI  
NAMOYANDALARI**

**Rajabova Rohila Zakirovna**

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi.

**Sitorabonu Sobirova**

Islom tarixi va manbashunosligi yo'nalishi talabasi.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.1549256>**

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligida Xattotlik san'ati va Xattotlik maktabi namoyandalari haqida ma'lumotlar keltirilgan va manbalar asosida tahlil etilgan.*

*Kalit so'zlar: Xattotlik, Qur'oni Karim, san'at, qo'lyozma, Buxoro maktabi, arab tili, fors tili, islam.*

Buxoro amirligida yaratilgan mahalliy manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, islam dini va islam ilmlarining qay darajada taraqqiy etganligiga guvoh bo'lamiz. Islom dinining o'lkamizga kirib kelishi natijasida mahalliy aholi o'rtasida arab tilining mafkuraviy ahamiyati kuchayib borishiga sabab bo'ldi. Bu davrgacha esa diyorimiz qadim zamonlardayoq turkiy va forsiy zabon aholi muloqot markaziga aylangan edi. XVIII-XIX asrgacha diniy manbalarining aksariyat qismi arab tilida yaratilgan. Keyingi asrlardagi manbalar ko'proq fors tilida yozilgan va arab tilida yaratilgan asarlar esa fors tilida sharhlangan va hoshiyalar bitilgan.

Qo'lyozma manbalar xattotlar tomonidan yozilgan va har bir davrning o'zining mashhur xattotlari bo'lgan. XVIII-XIX asrlarga oid Buxoro amirligida yozilgan qo'lyozma asarlar juda ko'p bo'lib, ularni fan va soha tarmoqlariga qarab turlarga ajratish mumkin. Bu davr qo'lyozma asarlarining salmoqli qismini islam ilmlariga oid manbalar tashkil qiladi. Islom ilmlarining podshohi Qur'onshunoslik bo'lib, Qur'oni karim islam diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar hayotida va tarixida asosiy o'rinn tutgan kitobdir. Bu kitob mazkur xalqlarning ilm-ma'rifati, adabiyoti, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlari va dunyoqarashlarida o'zining salmoqli izini qoldirgan.

Qur'oni karim o'zining 14 asrlik tarixi davomida qanchadan-qancha mamlakatlar va allomalar taqdirida tutgan o'rni, badiiy ta'sir sarchashmalari va nufuzi tufayli chuqur ilmiy, diniy tahlil va tadqiqodlarga sozovordir. Qur'on mavzulari islam dinini qabul qilgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy aqidayu an'analar bilan uzbek ravishda bog'landi. Shu nuqtai nazardan ularning ijodida milliy xususiyatlar Qur'onda o'z ifodasini topgan umumislom va umuminsoniy bashoratlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mang'itlar davrida Buxoroda qo'lyozma asarlar yozilish tarixini tadqiq qiladigan bo'lsak, o'zbek xalqining ming yillik tarixiga ega bo'lgan Buxoro madaniy merosida xattotlik va kitobat san'ati ham alohida o'rinn egallaydi. Arablar istilosidan so'ng O'rta Osiyoga islam dini bilan bir vaqtda kirib kelgan arab yozuvi qisqa fursatda rasmiy yozuvga aylantirilishi natijasida arab alifbosi estetik zavq beruvchi san'at asari darajasiga ko'tarildi. Bu yozuv namunalarida yozish xattotlik (kaligrafiya) nomi bilan keng shuhrat qozongan. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda xattotlik maktablari mavjud bo'lgan.

O‘z kasbining ustasi bo‘lgan mohir xattotlar davlat va xo‘jalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va ko‘chirishda me’moriy inshootlarga turli yozuvlar (Qur’oni karim oyatlari, hadislar, hikmatlar)ni chiroyli naqshlar tarzida bitishda mashhur bo‘lganlar[1:78].

XVIII-XIX asrlarda Buxoro xattotlik maktabining namoyandalari haqida gap borganda, albatta ularning usullariga qarab turkumlash muhimdir. Buxoro xattotlari o‘z ijodlarida turli xat usullaridan foydalanishgan. Ayniqsa, Buxoro xattotlik maktabi vakillarida nastaliq xatini qo‘llash keng o‘rin tutgan. Buxoro tarixiga aloqador manbalarda XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod qilgan 104 nafar xattotlarning nomlari keltirib o‘tilgan.

Xattotlar kitob ko‘chirish bilan birga ustozlik qilishgan, madrasalarda ta’lim berishgan.

Hattoki ular orasida kitobat san’ati bilan shug‘ullanuvchilari ham bo‘lgan. Mashhur mutafakkir olim, yozuvchi, shoир, astronom Ahmad Donish ham xattotlik bilan shug‘ullanganligi manbalarda keltirib o‘tilgan. U ko‘chirgan qo‘lyozmalariga o‘zi zarhal berib, sarlavhalar va miniatyuralar ishlagan. Bir oyda 24 juz’dan 30 juz’gacha (bir juz’ 16 betdan 24 betgacha) hajmli qo‘lyozmani ko‘chirib uni 20 tangadan 30 tangagacha sotganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ko‘chirgan qo‘lyozmalariga nasta’liq xati bilan yirik qalamda “Ahmad al-kotib, al-musavvir, al-muhandis, al-munajjim, al-Hanafiy al-Buxoriy” deb, o‘z asarlariga esa “Ahmad al-kotib, al-Buxoriy al-Hanafiy” va “Roqimu hu Ahmad ibn Nosir siddiq al-Hanafiy Buxoriy” deb turlich ra imzolar chekkan.

Mang‘itlar davrida nastaliq va nasx xatlarida kitob ko‘chiruvchilardan: Muhammad Yusuf Maxdum, Shahobiddin Maxdum Foziljon o‘g‘li, Nazrulloh Lutfiy, Hoji Nematulloh, Qori Ahmad Kotib Buxoriy, Maqsud Xo‘ja, Mirzo Abdulkarim, Mirzo Qamarjon, Hoji Abdusattor, Mirzo Abdulloh Kotib, Mirzo Rahmatulloh, Mirzo Sa‘dullohiy Buxoriy, Mir Fayzulloh, Mir Rahmatulloh, Abdullohbek Kotib kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ular Buxoro amirligi tarixida o‘zlaridan madaniy meros qoldirish qatorida o‘zlarining nomlarini ham tarix zarvaraqlarida muhrrab ketganlar. Ular yaratgan xattotlik namunalari nafaqat yurtimiz, balki g‘arb tadqiqotchilarining ham diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

Buxoro amirligida yaratilgan qo‘lyozma asarlar son-sanoqsiz bo‘lib, ularning tarixini tadqiq qiladigan bo‘lsak, quyidagi xulosalarni keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiq. Buxoro amirligida yozilgan manbalar hozirda nafaqat yurtimiz qo‘lyozma fondlarida, balki jahonning turli mamlakatlarining qo‘lyozma fondlarida saqlanib kelinmoqda. Ular turli sabablarga ko‘ra yurtimizdan olib chiqilgan. Masalan, qo‘lyozma manbalarning ayrimlarini Rossiyadan kelgan olimlar va elchilar o‘zları bilan olib ketganlar. Istilo va undan keyingi mustamlakachilik yillarda Freytag, Akimushkin, Ivanov, Smirnov, Gluxovskiy, Stroganov, Kostigov, Erdman, Dorn, Folkman, Simonich, Dolgoruki, Tamaev, Uillin, Kartovov, Geys, Pozalyan, Dyakonov, Trigorov, Golik, Revel, Kas, Danzas singari olimlar Turkistondan olib ketilgan qo‘lyozma asarlarni Sankt-Peterburg kutubxonalariga topshirganlar. Birgina Volochinskiy yurtimizdan olib ketgan 24 ta qo‘lyozma asarni imператор kutubxonasiga katta mukofot evaziga taqdim etadi.

Achinarli joyi shundaki, Buxoro amirlarining boy va ko‘p qamrovli kutubxonalari butkul talon-toroj etilgan, aksariyati yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston hududidan olib ketilgan. V.V. Bartold ta’kidlaganidek, “... qo‘lyozma asarlarning asosiy qismi amirning kutubxonasida saqlanar edi. Afsuski, qimmatbaho qo‘lyozmalar talon-taroj qilingan va chet el ommaviy kutubxonalariga sotilgan”[2:18].

Amir Nasrulloh davridan boshlangan g'orat amirlikning vassallik yillarida avj nuqtaga ko'tarilgan. Turkistonda uzoq muddat yashagan V.L. Vyatkin, I.A. Kastane, P. Nalivkinlar ham butun imkoniyatni ishgaga solib, qo'lyozma asarlarni jamg'arish payida bo'lganlar. V.L. Vyatkin yiqqan asarlar 190 jildni tashkil etgan. Ular orasida "Fathnoma", "Zubdat ul-osor", "Miftoh at-tolibin", "Kitob tuhfat al-nasab", "Nizom ut-tavorix", "Tuhfat al-Xoniy", "Tarixi Muqimxoniy", "Temurnoma", "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi Roqim", "Akbar-noma", "Murod ul-orifin", "Mahbub ul-qulub", "Xamsa", "Tazkirat ush-shuaro" kabi ilmiy-tarixiy qimmati beqiyos kitoblar asosini tashkil etgan. Ma'naviy xazinamizni talon-taroj etish va tashib ketishda generalgubernator K.P. Kaufmanning qo'li uzun, imkoniyati cheklanmagan edi.

Sankt-Peterburgdagi Davlat ommaviy kutubxonasida "Kaufman yig'masi" nomi ostida saqlanayotgan 150 jılddan oshiq qo'lyozmalar mundarijasi diqqatni tortmay qolmaydi. Bu davrda Sharq qo'lyozmalarining qimmatini yaxshi tushunib, ularni o'zlashtirib olishga harakat qilgan sayohatchi va elchilarining son-sanog'i bo'lмаган. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Buxoro amirligida yashab, ijod etgan olim va adiblarning ilmiy meroslari Rossiya imperiyasi ma'muriyatiga katta qiziqish uyg'otgan. Bugungi kunga kelib, ushbu noyob manbalar dunyo xazinalarini boyitib kelmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan mazkur manbalarni o'rganish kelgisida nafaqat Buxoro amirligi tarixi manbashunosligini boyitishga, balki o'z davrining yetuk olimlari bo'lgan ajodolarimiz intelektaul merosini yanada chuqurroq tadqiq etishga zamin yaratadi.

Mang'itlar davrida yozilgan tarixiy asarlar o'zbek, tojik hamda arabtillarida yaratilgan.

Ular nazm va nasrda yozilib, turli janrlarda doston, she'r, tarixiy-adabiy asar, memuar-tarixiy va biografik-tarixiy asarsifatida yuzaga kelgan. Sharq an'anasisiga muvofiq keluvchi sof tarixiy asarlar ham Buxoro amirligi tarixnavisligida kam emas. Tarixiy asarlar turlicha bo'lib, ba'zilarida muallif o'z ko'rgankechirganlarini ochiq-oydin bayon etsa, boshqasida amirlarni maqtab yoki voqealarni faqat ijobiy taraflarini yoritishga harakat qilishgan. Yanaboshqa turdag'i tarixiy manbalarda voqealar mualliflar tomonidan bo'rttirib hikoya qilingan. Buxoro tarixchilarining asarlarida yuqoridagibarcha uslublarga xos bo'lgan asarlar uchraydi. Bu esa muarrixlarimiz ijodida fantaziyaning boyligi, fikrlar erkinligi, ijodkor sifatida harbiriniig betakror ekanligidan darak beradi.

Tarix sohasida turli davrlardagi shaxslar va ijod ahlining hayoti va tarixini o'rganishda tazkiralardan unumli foydalanib kelinmoqda. Tazkiralarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orqali nafaqat madaniy hayot, balki davr ruhini ham baholash mumkin. Ular orasida hukmdorlarning topshirig'i va homiyligida yaratilgani yoki shaxsiy tashabbus asosida avvalgi tazkiralarni davom ettirish yoki to'ldirish maqsadida yozilgani ham mavjud. Tazkiralarni asosan shoirlar, xattotlar, tarixchilar yozgan va XX asrning o'rtasigacha davom etgan.

Masalan, Qori Rahmatulloh Vozeh tuzgan "Tuhfatul ahbab fi tazkiratil as'hob" [3:145] («Suxbatdoshlar zikrida do'stlar tuhfasi») tazkirası XVIII asr oxiri va XIX asrda yashab ijod qilgan Turkiston shoirlarini qamrab olgan. Bu tazkirada Buxoro va Qo'qonda yashagan 150 shoirning tarjimai holi va g'azallari to'plami bayon etilgan. Mang'itlar davrida yozilgan tazkiralardan yana biri Buxoro amiri Abdulaxadxonning tavsiyasi bilan yozilgan "Afzaliut tazkor fi zikrish shuaro val ash'o" [4:372,407] («Shoirlar va she'rlar haqidagi Afzal tazkirası») deb nomlangan tazkira bo'lib, bu asarni Buxoroda XX asr boshida Afzal maxdum Pirmastiy tuzgan.

Bu tazkirada XIX asr oxiri XX asr boshida yashab, ijod qilgan 135 shoir haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Bu davrda yana qator tazkiralalar tuzilib, an'anaviy tazkiranavislik yangi asarlar bilan boyitildi.

Sadr Ziyo «Shuaroi mutaaxxirin» (“Hozirgi davr shoirlari”) nomli tazkirasini Vozehning «Tuhfat ul-ahbob»[8:29-43] tazkirasi asosida yaratgan. Bu tazkira Vozeh qayd etgan XIX asrda Buxoroda yashab ijod qilgan 88 nafar shoir, olim, shayx haqida ma'lumot berib, «Tamom bo'ldi, Qori Rahmatullohiy Vozeh»[9:332] deb yakunlanadi. Sadr Ziyo Vozehning tazkirasini shunchaki ko'chirmay, undagi ma'lumotlarni to'ldirib aniqlashtiradi va ilovalar kiritadi. Ilovalarda Ahmad Donish va XIX asrning ikkinchi yarmida, Vozehdan keyin yashagan shoirlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Sadr Ziyo «Fuzaloi mutaaxxirin» nomli tazkirasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari, ya'ni Amir Muzaffar (1860-1885), Abdulahad (1885-1910), Olimxon (1910-1920)ning hukmronligi davrida, qisman sovet zamonida yashab ijod qilgan 79 nafar shoir va donishmand, ularning vafot sanalari, ba'zi shoirlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, XX asr boshida vujudga kelgan jadidlik haqida ma'lumotlar keltiradi[10:337].

Sadr Ziyo “Tazkurai shuaro manzumai Mirzo Muhammadsharif sadr” nomli majmuasiga o‘zining bir qator tazkiralari jamlaydi. Muallif unga kiritilgan “Tazkurai shuaro” (“Shoirlar zikri haqida”) nomli tazkirasida o‘zi va ajdodlari, Buxoro hukmdori Amir Abdulahadxon, Buxoroning XIX asr va XX asrning boshida yashagan shoir va olimlari, amaldorlari, diniy ulamolari haqida ma'lumot beradi. Majmuuning “Tazkurai xattoton” (“Xattotlar zikri haqida”) nomli qismida dunyoda ilk xatning paydo bo‘lishi, arab xatining tarixi, Mir Ali Tabriziy va Movarounnahrning mashhur kotiblari, O‘rta asrlardagi mashhur xattotlar, nasta’liq xatining vujudga kelishi va uni rivojlantirgan xattotlar, Buxoro va Samarqandning mashhur xattotlari, qozi, muftiy, voliy, amir va xonlar kabi amaldorlardan bo‘lgan mashhur xattotlar, muallifga hamzamon yashagan xattotlar haqida ma'lumotlar beriladi[11:3].

Xulosa qilib aysak, XVIII-XIX asrlarda Buxoroda ko'plab olimu fuzalolar yetishib chiqqan bo'lib, ular qoldirgan boy ma'naviy meros hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Zero, yuqorida nomlari keltirilgan olimlar Buxorodagi ilm fan rivojining ajralmas bo'lagi sifatida manbalarda o'z nomlarini qoldirganlar.

## REFERENCES

1. Qori Rahmatulloh Vozeh. “Tuhfat ul-ahbob fi tazkiratil as'hob” // Qo‘lyozma, O‘zR FA ShI fondi. Inv. № 2336/1. – 145 varaq. Yana qarang: Xadi-Zade R. Istochniki k izucheniyu tadjikskoy literatury vtoroy poloviny XIX veka. – Stalinabad, 1956.
2. Zakirovna, R. R. (2025). The Depiction of Tolerance in Sufi Sources. Indonesian Culture and Religion Issues, 2(1), 5-5.
3. Xaitov, L. A., Kuziyev, N. A., & Rajabova, R. Z. (2024). Ecological problems and the role of ecological culture in their solution. In BIO Web of Conferences (Vol. 120, p. 01033). EDP Sciences.
4. R.Hodizoda, U.Karimov, S.Sa'diev. Adabiyoti tojik: Asrxoi XVI-XIX va ibtidoi asri XX. – Dushanbe: Maorif, 1988. –B. 372,407.

5. Muhammad Siddiq Hashmat, Tazkirat ush-shuaro // Qo‘lyozma, O‘zR FA ShI fondi. Inv. № 2252/I, 138 varaq.
6. Zakirovna, R. R. (2020). Description of sources in Bukhara in the 18 th and 19 th centuries. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(8), 476-484.
7. Abdulazim Shar’iy. “Tazkirai shuaroi Abdulazim Shar’iy” // Qo‘lyozma O‘zR FA ShI fondi. Inv. № 3396/III. 81 b.
8. Ne’matulla Muhtaram “Tazkirai Hoji Ne’matulloh Muhtaram // Qo‘lyozma, O‘zR FA ShI fondi. Inv № 2252/II. 178 b.
9. Ражабова, Р. З. (2018). СВОЕОБРАЗНЫЕ КАЧЕСТВА ПРОИЗВИДЕНИЙ НАПИСАННЫЕ XVIII-XIX ВЕКАХ В БУХАРЕ. Актуальные научные исследования в современном мире, (1-2), 143-149.
10. Xadi-zade R. Istochniki po istorii izucheniya tadzhikskoy literatury konsa XIX-nachala XX vv. –Dushanbe. 1956. –S. 29-43.
11. Muhammad Sharifjon Sadr Ziyo. Shuaroi mutaaxxirin, 332 b varaq.
12. Zakirovna, R. R. THE IMPORTANCE OF XVIII-XIX CENTURY SOURCES IN THE STUDY OF BUKHARA HISTORY. Інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. II Міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 17-18 серпня 2020 р.–Дніпро, 2020.–562 с., 383.
13. Qori Rahmatulloh Vozeh. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti. Inv. №1304. 337 b varaq.
14. Xaitov, L. (2024). ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙ МЕРОСИДА ИЛМ МАСАЛАСИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 45, 45.
15. Azamatovich, X. L. (2023). Hakim Termizi-Theoretician of Knowledge on Nafs. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 32-38.
16. Azamatovich H. L. Hakim At Termiziy scientific heritage in the Hadis theme //International Journal on Integrated Education. – 2019. – T. 2. – №. 5. – C. 10-13.
17. Zakirovna, R. R. Uzbek Scientists Masterpieces in World Funds. International Journal on Integrated Education, 2(5), 170-172.
18. A.Murodov. O‘rta Osiyo xattotlik tarixidan. – T., 1971. – B. 3.